

Toshkent kimyo-texnologiya institutining  
2024-yil 10-dekabrdagi 445-son  
buyrug‘iga 1-ilova

**Professor-o‘qituvchilar tomonidan talabalarga noto‘g‘ri qo‘yilgan baholarni  
tuzatish va talabalar tomonidan apellyatsiya berish**

**TARTIBI**

**I. Umumiy qoidalar**

1.1. Mazkur tartib bilan "HEMIS" axborot tizimida professor-o‘qituvchilar tomonidan talabalarga noto‘g‘ri qo‘yilgan baholarni tuzatish va talabalar tomonidan apellyatsiya berish tartibi belgilanadi.

1.2. Noto‘g‘ri qo‘yilgan baho - "HEMIS" axborot tizimida professor-o‘qituvchilar tomonidan fanlar bo‘yicha baholashda aslidagi bahodan farqlanuvchi qo‘yilgan baho.

1.3. Noto‘g‘ri qo‘yilgan baholar "HEMIS" axborot tizimida akademik faoliyat bo‘yicha prorektor (direktor o‘rinbosari) rolidan o‘zgartiriladi.

**II. Oliy ta’lim tashkilotida professor-o‘qituvchilar tomonidan talabalarga  
noto‘g‘ri qo‘yilgan baholarni tuzatish tartibi**

2.1. Professor-o‘qituvchilar tomonidan talabalarga noto‘g‘ri qo‘yilgan baholar quyidagilar asosida o‘zgartiriladi:

baholarni qo‘ygan professor-o‘qituvchilar tomonidan oliy ta’lim tashkiloti rahbari nomiga yozilgan tushuntirish xati;

noto‘g‘ri qo‘yilgan baholarni o‘zgartirish uchun akademik faoliyat bo‘yicha prorektor nomiga yozilgan fakultet dekanining bildirishnomasi.

2.2. Baholarni asossiz o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

2.3. Baholarni tuzatish bildirishnomasi kelib tushgan sanadan boshlab o‘n ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatda amalga oshirilishi lozim.

2.4. Talabaning ayni bir fan bo‘yicha noto‘g‘ri qo‘yilgan bahosini ikki marta tuzatishga yo‘l qo‘yilmaydi.

2.5. Texnik xatolik sababli noto‘g‘ri qo‘yilgan baholarni uch kun muddatdan so‘ng o‘zgartirishga ruxsat etilmaydi. Bunda talabaga baholash natijasi e‘lon qilingandan boshlab 24 soat davomida baholash natijasi bilan tanishish va aniqlangan xatolik bo‘yicha murojaat qilish majburiyati yuklatiladi.

**III. Oliy ta’lim tashkilotida talabalar tomonidan apellyatsiya berish tartibi**

3.1. Talabalar bilimini baholash bo‘yicha natijalardan norozi bo‘lgan talabalar arizalarini ko‘rib chiqish uchun fakultet dekani tomonidan apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

3.2. Apellyatsiya komissiyasi oliy ta'lif tashkilotining ilmiy-pedagogik kadrlari, tajribali professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlari orasidan kamida 5 nafar a'zodan iborat tarkibda tuziladi. Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga talabani baholashda ishtirok etmagan tegishli fan professor-o'qituvchilari kiritiladi.

3.3. Talabalar bilimini baholash bo'yicha natijalardan norozi bo'lgan talabalar baholari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida apellyatsiya komissiyasiga shikoyat qilish huquqiga ega.

3.4. Talabaning apellyatsiya arizasini ko'rib chiqishda talaba ishtirok etish huquqiga ega.

3.5. Apellyatsiya komissiyasi shikoyatni 48 soat ichida ko'rib chiqadi hamda natijasi bo'yicha quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

shikoyatni asosli deb hisoblash hamda uni qanoatlantirish to'g'risida;

shikoyatni asossiz deb hisoblash hamda uni qanoatlantirishni rad etish to'g'risida.

3.6. Apellyatsiya komissiyasi qarori shu kunning o'zida talabaga ma'lum qilinadi.

3.7. Apellyatsiya komissiyasining shikoyatni asosli deb hisoblash hamda uni qanoatlantirish to'g'risidagi qarori asosida baholar "HEMIS" axborot tizimida akademik faoliyat bo'yicha prorektor profilidan o'zgartiriladi.

#### **IV. Yakuniy qoidalar**

4.1. Mazkur tartibda belgilangan qoidalar bo'yicha nizolar qonunchilik hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.